

**UDK: 37.022 (37.02)**

**ORCID ID: 0009-0009-5789-3296**

**TIBBIYOT YO'NALISHI TALABALARINING REFLEKTIV MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ  
КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ**

**PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING REFLECTIVE CULTURE IN  
MEDICAL STUDENTS**

**Xaydarova Nigora Obidovna**

Farg'ona davlat universiteti / Tayanch doktorant

O'zbekiston respublikasi, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi,  
19-uy. T: +998 90 230 09 15

**Annotatsiya:** Barchamizga ma'lumki, tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun reflektiv madaniyatni rivojlanirish kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim shartlari sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqot ishida reflektiv madaniyat tushunchasining nazariy asoslari, uni rivojlanirish uchun pedagogik shart-sharoitlar hamda tibbiy ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Eksperimental tadqiqot natijalari reflektiv madaniyatni rivojlanirish tibbiy ta'lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** reflektiv madaniyat, tibbiy ta'lim, pedagogik shart-sharoitlar, kasbiy kompetensiya, tahliliy fikrlash, innovatsion yondashuv

**Аннотация:** Как известно, формирование рефлексивной культуры у студентов-медиков считается важным условием формирования профессиональных компетенций. В данной научной работе анализируются теоретические основы концепции рефлексивной культуры, педагогические условия ее развития, методические подходы, используемые в процессе медицинского образования. Результаты экспериментального исследования показали, что развитие рефлексивной культуры оказывает положительное влияние на повышение эффективности медицинского образования.

**Ключевые слова:** рефлексивная культура, медицинское образование, педагогические условия, профессиональная компетентность, аналитическое мышление, инновационный подход.

**Abstract:** As we all know, the development of a reflective culture for medical students is considered an important condition for the formation of professional competencies. This research work analyzes the theoretical foundations of the concept of reflective culture, pedagogical conditions for its development, and methodological approaches used in the process of medical education. The results of the experimental study revealed that the development of a reflective culture has a positive effect on increasing the effectiveness of medical education.

**Keywords:** reflective culture, medical education, pedagogical conditions, professional competence, analytical thinking, innovative approach

## Kirish

Hozirgi kunda mamlakatimizda tibbiy ta'lif sifati va shifokorlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martdagи 144-son qarori tibbiyat oliv ta'lif muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Ushbu qarorlar va davlat dasturlarida ko'zda tutilgan vazifalarni amalgalashda ushbu maqola o'zining ilmiy yangiligi va tibbiyat ta'lifi yo'nalishida zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga qo'shgan hissasi bilan ma'lum darajada yordam beradi.

Tibbiy ta'linda bo'lajak shifokorlarning reflektiv madaniyatini rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi bo'lib, u tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va klinik vaziyatlarni chuqur tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, bu masala hali yetarlicha tadqiq qilinmagan va o'zbek ilmiy pedagogik muhitida kam yoritilgan. Ushbu ishning yangiligi shundaki, unda reflektiv madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari tibbiyat ta'limining o'ziga xos xususiyatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda ko'rib chiqiladi.

Refleksiya va reflektiv madaniyatga oid tadqiqotlar xalqaro miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, John Dewey [1], Donald Schön [2], va Jack Mezirow [3] kabi olimlar refleksiv ta'limning muhimligini ta'kidlaganlar. Xususan, Dewey reflektiv fikrlashni shaxsiy va kasbiy o'sish vositasi sifatida belgilagan bo'lsa, Schön kasbiy refleksiya konsepsiyasini ishlab chiqqan.

O'zbek olimlari orasida pedagogik refleksiya va kasbiy tayyorgarlik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar qatoriga Jalolov J. [4], Nishonov A. [5], Mahmudov U. [6], Shodmonov Sh. [7] kabilarni kiritish mumkin. Ularning tadqiqotlarda tahliliy tafakkurni rivojlantirish va pedagogik texnologiyalarning o'quv jarayoniga ta'siri masalalari keng yoritilgan.

Shuningdek, To'xtasinova G. va Yusupov M. kabi tadqiqotchilar reflektiv ta'lim texnologiyalarining O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga joriy etilishi bo'yicha ilmiy ishlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlari tibbiyat sohasida reflektiv yondashuvning samaradorligini oshirishga doir qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

## **Tibbiy ta'lif jarayonida reflektiv madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shartlari**

Reflektiv madaniyat – bu shaxsning o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va xulosalar chiqarish orqali kasbiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab fenomen hisoblanadi. Tibbiyat ta'linda bu jarayon bo'lajak shifokorlarning klinik qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirish, bemorlar bilan samarali muloqot qilish hamda kasbiy mas'uliyatni chuqur anglashiga yordam beradi.

Date: 17<sup>th</sup> April-2025

Reflektiv madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi:

+ Innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish – masalan, case-study, portfolio metodi, elektron jurnal va bloglar yuritish, muammoli ta’lim kabi usullar yordamida talabalarning o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

+ Interaktiv yondashuvlar – talabalar o‘zaro bahslashish, ilmiy muhokamalar va simulyatsion mashg‘ulotlar orqali kasbiy refleksiyani rivojlantirishlari mumkin.

+ O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida refleksiv muloqotni rivojlantirish – mentorlik tizimi va muntazam tahliliy mashg‘ulotlar talabalarning o‘z faoliyatini anglashiga yordam beradi.

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar doirasida 2023-yilda O‘zbekistonning yetakchi tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida (Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti va Central Asia Medical University) talabalar ishtirokida reflektiv madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturi sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, reflektiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar tahliliy fikrlash qobiliyatini 27% ga oshirishga, kasbiy refleksiya darajasini esa 33% ga yaxshilashga yordam berdi.

Universitet chi talabala r soni	Ishtirok n oldingi tahliliy fikrlash darajasi (%)	Eksperimentda n oldingi tahliliy fikrlash darajasi (%)	Eksperimentda n keyingi tahliliy fikrlash darajasi (%)	Eksperimentda n oldingi kasbiy refleksiya (%)	Eksperimentda n keyingi kasbiy refleksiya (%)
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	120	58	85	55	88
Central Asia Medical University	110	60	87	57	90

**1-jadval. Eksperimental Tadqiqot Natijalari**

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, reflektiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish tibbiyot yo‘nalishi talabalar orasida tahliliy fikrlash va kasbiy refleksiya darajasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti va Central Asia Medical Universityda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, eksperimentdan oldin talabalar tahliliy fikrlash darajasi 58–60% atrofida bo‘lgan bo‘lsa, eksperimentdan keyin ushbu ko‘rsatkich 85–87% gacha oshgan. Xuddi shunday, kasbiy refleksiya darajasi dastlab 55–57% bo‘lib, eksperiment yakunida 88–90% gacha ko‘tarilgan. Bu esa reflektiv ta’lim usullarining talabalar ongida kasbiy mas’uliyat, tahliliy tafakkur va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot shuni isbotladiki, refleksiya asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni bo‘lajak shifokorlarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi va ularning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, reflektiv yondashuvlar

Date: 17<sup>th</sup> April-2025

tibbiy ta'lif jarayoniga integratsiya qilinsa, talabalar tibbiy muammolarni chuqur tahlil qilish, bemor bilan samarali muloqot qilish hamda o'z xatolaridan saboq olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ushbu metodika kelgusida tibbiyat OTMlarida kengroq joriy etilishi va o'quv dasturlariga kiritilishi lozim.

### **XULOSA**

Tibbiyat yo'nalishi talabalari uchun reflektiv madaniyatni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlik jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tahliliy fikrlashni rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, refleksiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik modellar tibbiyat ta'limining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, reflektiv madaniyatni baholash metodologiyasini ishlab chiqish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni yanada keng joriy etish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jalolov J. J., Bakhranova M. A. On Using Background Knowledge in Teaching/Learning Foreign Language. – 2022.
2. Botirovna X. S. Ta'lif tizimini modernizatsiyalash jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan va refleksiya asosidagi texnologiyalar bilan tayyorlashning ahamiyati //pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 223-227.
3. Mahmudov U. Kasbiy pedagogik kompetensiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
4. Shodmonov Sh. Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalar. – Buxoro: Marifat, 2020.
5. To'xtasinova G. Reflektiv madaniyat va kasbiy rivojlanish. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021.
6. Yusupov M. Tibbiyatda ta'lif metodologiyasi. – Samarqand: Fan va Taraqqiyot, 2022.